



IJTIMOY HIMOYA
MILLIY AGENTLIGI



Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda kompleks yondashuvni targ'ib qilish borasida O'zbekistondagi davlat tizimini tahlil qilish



Dr. Anette Scopetta, Eszter Zólyomi



EUROPEAN CENTRE FOR SOCIAL WELFARE POLICY AND RESEARCH

Vena, 15 May 2024 y.

Ushbu hisobotda bildirilgan fikrlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, jumladan, BMTTD yoki BMTga a'zo davlatlarning nuqtai nazarini aks ettirmaydi. Ushbu nashrdagi ma'lumotlarni tekshirish uchun barcha asosli choralar ko'rildi. Biroq, nashr etilgan materiallar hech qanday aniq yoki nazarda tutilgan kafolatlarsiz tarqatiladi. BMTTD har qanday tashqi veb-sayt mazmuni uchun javobgar emas. Nashrda qo'llanilgan ta'riflar va atamalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining amaliyotiga mos bo'lmasligi mumkin va Tashkilot tomonidan biron bir fikr bildirilganligini anglatmaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) BMTning qashshoqlik, tengsizlik va iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelganadolatsizlikka qarshi kurashuvchi yetakchi tashkilotidir. Biz 170 ta mamlakat va hududlardagi keng ekspertlar va hamkorlar tarmog'i bilan hamkorlik qilib, insoniyat va sayyora uchun integratsiyalashgan, uzoq muddatli yechimlarni yaratishga yordam beramiz. Biz haqimizda ko'proq ma'lumotni undp.org/uzbekistan sahifasidan oling yoki ijtimoiy tarmoqlarda @UNDPUzbekistan sahifasini kuzatib boring. © BMTTD 2024.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Ahолига сифатли ижтимоий хизмат ва ўордам ко'рсатиш hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan tashkil etilgan.

BMTTD tomonidan Yevropa Ijtimoiy ta'minot siyosati va tadqiqotlari markaziga BMTTDning O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziriliqi bilan "Global va mintaqaviy beqarorlik davrida ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarni bartaraf etish" qo'shma loyihasi doirasida O'zbekistonda bandlik va ijtimoiy xizmatlar sohasida qo'llaniladigan kompleks yondashuvlarni tadqiq qilish, tahlil qilish va xaritasini tuzish topshirildi.

Barcha huquqlar himoyalangan. Ushbu hisobotning mazmuni va ma'lumotlari manba tan olingen holda to'liq va/yoki qisman boshqa joyda takrorlanishi mumkin. Manba iqtibos qilinishi: Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda kompleks yondashuvni targ'ib qilish borasida O'zbekistondagi davlat tizimini tahlil qilish. BMTTD, O'zbekiston Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Yevropa ijtimoiy ta'minot siyosati va tadqiqotlari markazi, Mualliflar: Anette Skoppetta va Eszter Zolyomi, 2024 yil.

E'tirof

Ushbu hisobot Lyuksemburg va Koreya Respublikasi hukumatlarining BMTTDning "Qashshoqlik va tengsizlikka karshi kurashni moliyalashtirish darchasi" orqali yo'naltirilgan moliyaviy ko'magida asosida BMTTDning "Global va mintaqaviy beqarorlik davrida ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarni bartaraf etish" loyihasi doirasida tayyorlangan. Hisobot BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistonidagi inklyuziv o'sish klasteri tomonidan tayyorlangan. Mazkur hujjat Yevropa ijtimoiy farovonlik siyosati va tadqiqot markazi ekspertlari jamoasi (doktor Anette Skoppetta va Eszter Zólyomi) tomonidan tayyorlangan va Diana Qurbonbayevaning keng ko'lamli ko'magida Nargiza Xamidova (BMT Taraqqiyot dasturining loyiha menejeri) tomonidan olib borilgan. Hudoyqul Hafizov (UNDP O'zbekiston), Gregori Maktaggart (UNDP RBEC) va Ijtimoiy himoya milliy agentligi (IHMA) vakillari qiyamatli hissalarini qo'shganlar. Vizual tarkib va dizayn Yevropa ijtimoiy farovonlik siyosati va tadqiqot markazi tomonidan ishlab chiqilgan va tayyorlangan.

Mundarija

1 Kirish	6
2 Nogironlarning ahvoli, milliy qonunchilik va siyosatdagi asoslar	7
2.1 Bandlik.....	7
2.2 Ijtimoiy himoya	13
3 O'zbekistonda integratsiyalashgan keys menejmentni tadbiq etish	16
4 Istiqbolli xalqaro amaliyotlar	20
4.1 Litvada keys-menejment modeli.....	21
4.2 Kosovoda faol inklyuziya asosida integratsiya platformasi (AIIP)	23
4.3 Armanistonda integratsiyalashgan ijtimoiy xizmatlar markazlari (IIXMLar)	26
4.4 Maltada ish o'rni yaratish o'ymakorligi va hunarmandchiligi	27
5 Siyosat bo'yicha tavsiyalar	30
6 Xulosalar	37
7 Manbalar va qo'shimcha adabiyotlar	39

Qisqartmalar ro'yxati

ATA	Avstria Taraqqiyot Agentligi
BB mamlakatlar	Evropa markazining ko'priklar mamlakatlari
IIM	Ijtimoiy Ish Markazlari
Yevropa Markazi	Ijtimoiy ta'minot siyosati va tadqiqotlari Yevropa markazi
YI	Yevropa Ittifoqi
IKM	Integratsiyalashgan Keys-Management
XMT	Xalqaro Mehnat Tashkiloti
O'AM	O'zaro anglashuv memorandumi
IHMA	Ijtimoiy himoya milliy agentligi
DBX	Davlat bandlik xizmati
SOP	Standart operatsion protseduralar
BMTTD	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi
UNDP RBEC	Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining Yevropa va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi uchun mintaqaviy byurosi
UNICEF	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi
UZSTAT	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
JB	Jahon Banki

Muqaddima

O'zbekiston hukumati kompleks yondashuvlarni joriy etish orqali bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida islohotlar va strategiyalar loyihibarini ishlab chiqib, amalga oshirmoqda. Jamiatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, ayniqsa nogironligi bo'lgan shaxslarning ahvoli, shu jumladan ular mehnat bozoriga integratsiyalashuvida yuz tutayotgan noqulayliklar ko'p jihatdan tashvishga solmoqda. Ijtimoiy va mehnat bozori xizmatlari hali ham hamma joyda mavjud emas va nogironlar uchun maqsadli ish bilan ta'minlash choralar ko'p hollarda yo'lga qo'yilmagan. Bandlik va ijtimoiy ta'minot sohasida manfaatdor tomonlar o'rtaida keng qamrovli va yaxshi muvofiqlashtirilgan dasturlar va hamkorlikka ehtiyoj bor. Nogironlar kabi ijtimoiy jihatdan zaif guruhlarga ularning jamiat va mehnat bozoriga integratsiyalashuv yo'lida ko'rsatilayotgan yordamlar yanada mujassam tusda bo'lishi kerak va bunday yordam keys menejment yondoshuvini iz ichiga olgan bo'lishi lozim.

1 Kirish

Ushbu tahliliy hisobot O'zbekiston hukumati va BMT Taraqqiyot dasturining qo'shma tashabbusi bo'lgan "Global va mintaqaviy beqarorlik davrida ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarni bartaraf etish" loyihasi doirasida tayyorlangan. Loyiha davlat institutlari va xususiy tuzilmalarning salohiyatini yaxshilash hamda yangi ish o'rnlari yaratish va bandlik imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash siyosatini ishlab chiqish orqali inklyuziv, barqaror iqtisodiy o'sishga va mintaqaviy tengsizliklarni kamaytirishga hissa qo'shishga qaratilgan. Bunda bandlik va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda kompleks yondashuvni qo'llash O'zbekiston hukumatiga fuqarolarning o'zлari duch kelayotgan to'siqlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga yordam beradi.

Ijtimoiy ta'minot siyosati va tadqiqoti Yevropa markazi (Yevropa markazi) BMTTD tomonidan O'zbekistonda nogironlarning bandligini oshirishga e'tibor qaratgan holda bandlik va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda qo'llaniladigan kompleks yondashuvlarni tadqiq qilish, tahlil qilish va xaritalash ishlarni olib borish uchun jalb qilingan. Yevropa Markazi xizmatlarini taklif qilish orqali, xususan, bandlik va ijtimoiy himoya o'rtasidagi ishlarni integratsiyalashgan holda boshqarish bo'yicha BMTTDning texnik yetakchiligiga asoslangan integratsiyalashgan siyosat bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi¹.

Loyihaning vazifalari quyidagilardan iborat: 1) nogironlarga e'tibor qaratgan holda ijtimoiy himoya va mehnat tizimlarida amaldagi o'rtal muddatli yoki uzoq muddatli davlat dasturlarini umumiy baholash; 2) integratsiyalashgan ishlarni boshqarish (keys menejment) asosida nogironlarni ishga joylashtirish bo'yicha xizmatlarning amaldagi tizimini tahlil qilish; 3) xalqaro istiqbolli amaliyotlar bo'yicha nazariy tadqiqotni o'tkazish; 4) xizmat ko'rsatishning integratsiyalashgan modelini taklif qilish orqali pilot loyihani ishlab chiqishga hissa qo'shish; va 5) trenerlarni tayyorlash modeli formatida treninglar o'tkazish.

Ushbu hisobot BMTTD va O'zbekiston hukumatiga taqdim etilgan birinchi tahliliy ma'lumotdir. U Toshkent shahrida mahalliy boshqaruvin darajasida pilot loyihalarni tayyorlash uchun umumiy asoslarni belgilashga qaratilgan. Manfaatdor tomonlar o'rtasida Integratsiyalashgan keys menejment (IKM) modeli qo'llanilishi bo'yicha umumiy tushunchani shakllantirish uchun Yevropa Markazi 2024-yil aprel oyida missiya davomida, jumladan IKM ko'lagini belgilash bo'yicha seminar va milliy manfaatdor tomonlar ishtirokidagi seminarda turli manfaatdor tomonlarning fikrlarini o'rganib chiqdi. IKMni O'zbekistonda sinovdan o'tkazish bo'yicha tavsiyalar ushu missiya davomida to'plangan xulosalarga asoslanadi va 2024-yil may oyida

¹ Misol uchun qarang: BMTTD/XMT/ADA loyihasi "G'arbiy Bolqonda inklyuziv mehnat bozori yechimlarini ilgari surish" (<https://www.undp.org/eurasia/projects/promoting-inclusive-labour-market-solutions-western-balkans-phase-ii>)

ishlab chiqiladigan tahliliy hujjatga kiritiladi. Nihoyat, pilot loyihalarning asosiy xodimlari va boshqa mutaxassislar bilan treninglar o'tkaziladi.

Ushbu tahliliy hisobot materiallarni o'rganish tadqiqotiga asoslangan. Mazkur tadqiqotda, jumladan tegishli hukumat va qonun hujjatlari, ilmiy maqolalar, hisobotlar va veb-saytlar qamrab olingan. Hisobot quyidagicha tuzilgan: kirish qismidan so'ng nogironlar holati, milliy qonunchilik va siyosat asoslari 2-bobda keltirilgan. 3-bob O'zbekistonda IKMni (potentsial) qo'llash bo'yicha tahlil natijalari haqida ma'lumot beradi. Xalqaro amaliyat 4-bobda va siyosat bo'yicha tavsiyalar 5-bobda keltirilgan. Shundan so'ng xulosalar (6-bob) keltirilgan.

2 Nogironlarning ahvoli, milliy qonunchilik va siyosatdagi asoslar

Ushbu hisobotda, *IKM bandlik va ijtimoiy himoya organlari tomonidan mehnat bozori va ijtimoiy himoya tizimi va hatto undan tashqaridagi barcha mavjud resurslar bilan eng zaif qatlamlarga xizmat ko'rsatish uchun birlgilikda qo'llaniladigan innovatsion amaliyat sifatida tushuniladi*². U, masalan, ijtimoiy xizmatda qo'llaniladigan ishlarni boshqarish yondashuvidan farq qiladi, chunki u aynan bandlik siyosati va ijtimoiy himoya siyosati sohasi interfeysida qo'llaniladi va shu tariqa ishlarni boshqarishga yaxlit yondashuv taklif qiladi.

Ushbu bo'limda IKMning asosiy siyosat sohalari (bandlik va ijtimoiy himoya) bo'yicha milliy qonunchilik va siyosat asoslari haqida qisqacha ma'lumot berilgan va bunda nogironlar masalasiga alohida e'tibor qaratilgan³.

2.1 Bandlik

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 15-oktabrda "Nogironligi bo'lган shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunni (O'zbekiston hukumati, 2020b) imzoladi⁴. Ushbu qonun xalqaro standartlar va Birlashgan Millatlar Tashkilotining

² Ushbu ta'rif allaqachon Armaniston va Tojikistonda ijtimoiy himoya va bandlik xizmatlarini ko'rsatishni muvofiqlashtirishni takomillashtirish loyihasi (qarang: <https://www.euro.centre.org/projects/detail/4261>) va G'arbiy Bolqonda bandlik va ijtimoiy ta'minot foydalanuvchilari uchun integratsiyalashgan vaziyat boshqaruvi (qarang: <https://www.euro.centre.org/projects/detail/205>) loyasi doirasida qo'llanilgan.

³ Boshlang'ich uchrashuvda hamkorlar o'tasida kelishib olinganidek (2024 yil 11 yanvar).

⁴ <https://lex.uz/acts/1446995>; O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha to'qqizta asosiy xalqaro shartnomaning yettasiga a'zo bo'lib, shartnomaga majburiyatlarini doimiy ravishda kengaytirib

(BMT) “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konventsiya”si (NHTK) (XMT, 2020) talablarini o‘zida mujassam etgan. NHTKni amalga oshirish bo‘yicha 2023–2025 yillarga mo‘ljallangan Milliy Harakat Rejasi (MHR) imzolandi⁵. Ushbu MHR NHTKni barcha siyosat sohalari va jabhalarida tadbiq etishni nazarda tutgan (JB, 2023).

O‘zbekiston aholisi 34,6 million kishini tashkil etadi. Ularning 60 foizi 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir (JB guruhi, 2022). ITIM va BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi vakolatxonasi ma‘lumotlariga ko‘ra (2023 yil) katta yoshdagi aholining taxminan 18,4 foizi (4,2 million) ko‘p qirrali kambag‘allik holatidadir⁶. 2022-yilda iqtisodiyotda 13,7 million kishi band bo‘lgan bo‘lsa, 1,3 million ishsiz bo‘lgan⁷. Ish bilan band bo‘lgan nogironlar soni qaydi turli manbalarda turlicha bo‘lib, mehnatga layoqatli yoshdagi nogironlarning 5 foizidan (XMT, 2020) 7 foizigacha (BMT O‘zbekiston, 2019) oraliqda ko‘rsatiladi. Biroq, ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan odamlarning ish bilan ta‘minlangan bo‘lishligi ehtimoli nogironligi bo‘limganlarga qaraganda to‘rt baravar kam⁸. Shu e‘tiborga loyiqliki, qishloq joylarda vaziyat yomonroq bo‘lib, band bo‘lgan nogironlar ulushi atigi 5,8%, ish bilan ta‘minlangan nogiron ayollarning ulushi atigi 4,4% tashkil qiladi va bu nogironligi bo‘lgan erkaklarning bandlik ko‘rsatkichi (8,9%)dan sezilarli farq qiladi (Yusupov va Abduxalilov, 2022, BMTning O‘zbekiston materiallari asosida, 2019 yil).

1-Jadval: O‘zbekiston: asosiy ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar	Ma‘lumotlar	Manbalar va izohlar
Aholi	34.6 million	JB Guruhi (2022)
	60% aholi 30 dan yosh	
	13.7 million ish bilan band	2022 (mavjud so‘nggi ma‘lumot); UZSTAT
	1.3 million odam ishsiz	2022 (mavjud so‘nggi ma‘lumot); UZSTAT
	4.2 million kattalar (18.4%) ko‘p qirrali kambag‘allikda.	O‘zbekiston uchun ko‘p o‘lchovli qashshoqlik indeksi (ITIM and BMTTD UZB, 2023)

bormoqda. O‘zbekiston 2021-yil iyun oyida Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konventsiyanı ratifikasiya qilgan. (UN General Assembly, 2023).

⁵ Masalan, qarang: <https://labourcentralasia.org/en/news/uzbekistan-we-now-have-rights-but-how-to-implement-them/?f=sANwmylp>

⁶ BMT tuzilmalari O‘zbekiston uchun ko‘p o‘lchovli qashshoqlik indeksini yaratish bo‘yicha qo‘shma tashabbus bilan chiqdi. Ushbu indeks kambag‘allarni qo‘llab-quvvatlash siyosatini yanada yaxshilash choralarini ko‘rish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish imkonini berishi kerak. Iltimos, qarang: <https://hdr.undp.org/sites/default/files/Country-Profiles/MPI/UZB.pdf>

⁷ O‘zbekiston Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda bandlik darajasi (ish bilan band bo‘lganlar sonining mehnatga layoqatli aholiga nisbatli sifatida) 67,2 foizni, ishsizlik darajasi esa 8,9 foizni tashkil etdi.; please see <https://stat.uz/en/official-statistics/labor-market> (Data as of 28 July 23).

⁸ <https://disabilityin.org/country/uzbekistan/>

Nogironligi bo'lgan shaxslar	845 300 inson guvohnomaga ega (2,3%)	JB, 2023
	1- va 2-guruh nogironligi bo'yicha nafaqaxo'rlar: 287 763 kishi	IHMA (2024)
	Uchchala nogironlik guruhlari bo'yicha 162,200 kishi (25%) "mehnatga layoqatli" deb topilgan.	JB Guruhi, 2022
	21 100 kishi (162 200 kishining 6 foizi) rasman band	JB Guruhi, 2022
	Mehnat yoshidagi nogironligi bo'lgan shaxslarning 5-7% ish bilan band	XMT, 2020; BMT O'zbekiston, 2019

Belgilangan uchta nogironlik toifasi (I, II va III nogironlik guruhlari) mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasi bilan bog'liq. Mas'ul davlat organi – Ijtimoiy himoya milliy agentligi (IHMA). O'zbekiston Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyalari (TIEK) nogironlikni baholashni amalga oshiradi va kasbiy va mehnat tavsiyalarini o'z ichiga olgan nogironlik guvohnomasiga ega bo'ldi, bu umumiy aholining 2,3 foizini tashkil qiladi (JB, 2023). IHMA (2024) ma'lumotlariga ko'ra, nafaqa to'lanuvchi I va II guruh nogironlari soni 287 763 nafar. IHMA ma'lumotlariga ko'ra⁹, TIEK nogironlar ishlashi mumkin bo'lgan sohalarni tavsiya qiladi, lekin odatda ma'lum turdag'i nogironligi bo'lgan shaxslarni "mehnatga layoqatsiz" deb hisoblaydi (JB guruhi, 2022). Faqat III guruhdagi shaxslar mehnatga qisman layoqatli hisoblanadi¹⁰. Shu bilan birga, barcha uchta nogironlik guruhidagi 162 200 dan kam odam "mehnatga layoqatli" deb topildi; Ular O'zbekistonda ro'yxatga olingan katta yoshdagi nogironlarning qariyb 25 foizini tashkil qiladi. Ularning taxminan 6 foizi (21 100) rasman ish bilan band. Boshqa manbalarda bu ko'rsatkich o'rtacha 2% ni tashkil qiladi (JB guruhi, 2022). Yusupov va Abduxalilov (2022) tomonidan o'tkazilgan so'rov ishtirokchilarining ma'lum qilishicha, ko'pincha aynan mana shu yorliq shaxslarning rasmiy bandligini cheklaydi va ularni nogironlik nafaqasiga qaram qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining NHTKsi ratifikatsiya qilinganiga qaramay, nogironlikning huquqiy ta'rifi hali ham O'zbekistonda jismoniy, aqliy, va hissiy nuqsonlar bilan aralashib ketgan, deb xabar beradi Yusupov va Abduxalilov (2022). Yusupov va Abduxalilov (2022) tomonidan o'tkazilgan so'rovning ko'plab ishtirokchilari amalda qonunchilik va siyosiy asoslar, shuningdek, ijtimoiy himoya tizimini loyihalash O'zbekiston mehnat bozoriga nogironlar kirishi yo'lidagi eng

⁹ IHMA tomonidan 2024 yil 12 martda olingan ma'lumot.

¹⁰ Shunisi e'tiborga loyiqliki, salbiy so'zlar ("qisman mehnat layoqatini yo'qotgan") qo'llanilmoxda, bu nogironlikni baholashning hali ham amalda bo'lgan "tibbiy modeli" bilan (O'zbekistonda yaqinda joriy etilgan "ijtimoiy model" dan farqli o'laroq) bog'liq bo'lishi mumkin.

muhim to'siqga aylanganini tasdiqladi. Olimlar hukumat nogironlarni baholash va ijtimoiy himoya qilishning mavjud institutsional va siyosiy asoslarini tubdan isloh qilishi va nogironlarning mehnat bozoriga kirishini ta'minlashi lozimligini taklif qiladi. Bunga nogironlarni qarorlar qabul qilish jarayonlariga mazmunli jalb qilish va barcha mavjud to'siqlarni bartaraf etish uchun ularning vakilllik tashkilotlari bilan hamkorlik qilish orqali erishish mumkin (Yusupov va Abduxalilov, 2022).

O'zbekistonda nogironlik hali ham qonuniy ravishda kasallik va mehnatga layoqatsizlik bilan bog'langan. Nogironligi bo'lgan shaxslar rasmiy ravishda ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tishlari mumkin, lekin ular nogironlik nafaqasini olishlari tufayli ayni vaqtda ishsizlik nafaqasini olish huquqiga ega emaslar (XMT, UNICEF va Jahon banki, 2020 yil). Binobarin, ko'p nogironlar boshqalar bilan teng ravishda mehnat bozoriga kirishda institutsional va tarkibiy to'siqlarga duch keladilar (JB guruhi, 2022). Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimining joriy ko'rinishi nogironlarning ochiq mehnat bozorida ishga joylashishiga moyilllik bildirmaydi. Nogironlik nafaqalari nogironlik bilan bog'liq xarajatlar uchun kompensatsiya sifatida emas, balki oylik daromad shakli sifatida taqdim etiladi. Nogironligi bo'lgan band shaxslar, shuningdek, TIEK tomonidan muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazilganda o'z nafaqalarini yo'qotishdan qo'rqishadi va shuning uchun kamsitish yomonroq bo'lgan va ish haqi rasmiy sektordagilarning qariyb yarmini tashkil qiladigan norasmiy sektorda ko'proq ishslashga moyil bo'ladilar (JB guruhi, 2022; shuningdek, BMTga qarang, 2022). Shunga qaramay, band bo'lgan nogironlarning barcha imtiyozlari saqlanib qoladi; nogironlik nafaqasi faqat II guruhdan III guruhga o'tganda yo'qoladi¹¹.

"Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi qonun (O'zbekiston hukumati, 2020b) mahalliy davlat hokimiyyati organlaridan nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinalining eng kam sonini xodimlar umumiyligi sonining kamida 3 foizi miqdorida bo'lishligini belgilashni talab qiladi¹². Qonun kamida 20 nafar fuqaro ish bilan ta'minlangan davlat muassasalari va xususiy korxonalarga nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ish o'rinalini zaxiralash majburiyatini yuklaydi¹³. Biroq, nogironlarni ishga joylashtirish kvotalarini qo'llanilmaydi va monitoring va baholash (M&E) mexanizmi mavjud emas, bu esa Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (KQBV)¹⁴ uchun ushbu siyosatning samaradorligini baholashni qiyinlashtiradi (JB, 2023). KQBV qoshidagi Mehnat inspeksiysi bandlik kvotasi monitoringi va bajarilishini ta'minlash uchun cheklangan xodimlar va imkoniyatlarga ega (Yusupov va Abduxalilov, 2022). Kvota tizimining ma'lumotlari va monitoringi yo'qligi sababli, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlashda kvota tizimi qay darajada samarali bo'lganligini baholash qiyin.

¹¹ BMTTDning O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan 2024-yil 12-mart kuni olingan ma'lumotlar.

¹² <https://labourcentralasia.org/en/news/uzbekistan-we-now-have-rights-but-how-to-implement-them/?f=sANwmylp>

¹³ <https://disabilityin.org/country/uzbekistan/>

¹⁴ Sobiq Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (BMMV)

Evropa Ittifoqi mamlakatlarda qo'llaniladigan kvota tizimlariga oid dalillar shuni ko'rsatadi, kvotaning bajarilishi 30% dan 70% gachani tashkil qiladi (Fuchs, 2014). Hatto Avstriya, Germaniya va Frantsiya kabi bu borada nisbatan yuqori ko'rsatkichli talablarga rioya qilmaslik uchun sanktsiyalar mavjud bo'lgan mamlakatlarda ham kvotalar qisman to'ldiriladi (Fuchs, 2014; XMT, 2019). Kvota tizimlarini amalga oshirish nisbatan sodda va davlat moliyasiga yuki past bo'lsa-da, mavjud empirik ma'lumotlar ish bilan bandlik bo'yicha sof daromadlarning faqat kichik miqdorda bo'lganini ko'rsatadi (Fuchs, 2014; XMT, 2019). Kvotani ish bilan band bo'lgani holda nogiron bo'lib qolgan shaxslar to'ldirishi mumkin bo'lganligi sababli, nogiron ish izlovchini yollashdan farqli o'laroq, ularni ishda saqlanib qolish ehtimoli ko'proq (Fuchs, 2014). Shuningdek, yig'imlar yoki jarimalar ko'rinishidagi to'ldirilmagan kvotalar uchun qo'llaniladigan sanktsiyalar ish joyini moslashtirish bilan bog'liq xarajatlarga nisbatan ish beruvchilar uchun unchalik katta bo'Imagan xarajatlarni hisoblanadi (XMT, 2019). Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) a'zo mamlakatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning bandlik darajasini taqqoslanganda bandlik kvotalari va yuqori bandlik ko'rsatkichlari o'rtasida hech qanday bog'liqlik aniqlanmagan (IHTT, 2010).

Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilishda korxonalarga imtiyozlar (masalan, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun yagona soliq stavkasi, ish haqi subsidiyalari, nogironlar uchun ish joylarini moslashtirish xarajatlarini qoplash uchun subsidiyalar kabi soliq imtiyozlar) taqdim etilgan bo'lsa-da, O'zbekiston Mehnat kodeksida¹⁵ nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan imtiyozli rejimga oid bo'limi ish beruvchilarni ularni ishga yollashdan tiyilishlariga sabab bo'lishi mumkin (JB guruhi, 2022; Yusupov va Abduxalilov, 2022). Salbiy stereotiplar va noto'g'ri qarashlar nogironlarning ish topish imkoniyatlari yanada ta'sir qiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kvotalar ish beruvchilarni nogiron ish izlovchilarni yollashga unchalik rag'batlantirmaydi va hatto ularning ochiq mehnat bozorida ishga joylashish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Mehnat kodeksi ijobiy kamsitishning qo'shimcha choralarini, shu jumladan ish vaqtida to'liq ish haqi, qisqartirilgan ish vaqt, uzaytirilgan yillik ta'til va boshqa imtiyozlarni nazarda tutadi (Yusupov va Abduxalilov, 2022; JB guruhi, 2022).

Bandlik siyosati O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilishning bir qismi bo'lib, bandlik bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar Aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi va uning maqsadlariga kiritilgan (O'zbekiston Hukumati, 2022d; quyida ko'ring). 14 ta hududiy va 206 ta tumandagi 206 ta tumanlar va aholini ish bilan ta'minlash markazlari faoliyatini nazorat qiluvchi KQBV tarkibiga Davlat ish bilan bandlik xizmati (DBX) kiradi.

XMT ta'kidlaganidek, DBX hali bandlik bo'yicha zamonaviy davlat xizmatining barcha asosiy funksiyalarini bajarmayapti (XMT, 2020). Bundan tashqari, faqat cheklangan

¹⁵ O'zbekiston Hukumati, 2022e.

Faol mehnat bozori dasturlari (FMBD) mavjud bo'lib, ular asosan jamoat ishlari dasturi (moliyalashtirishning eng yuqori ulushini o'zlashtiradi) va kadrlar tayyorlash/qayta tayyorlash dasturidan (XMT, 2021) iborat. Aksariyat hollarda nogironlarni ishga joylashtirishning maqsadli chora-tadbirlari yo'q va "nogironlikka kompleks yondoshuv"¹⁶ qo'llanilmaydi. O'zbekiston hukumati tomonidan belgilangan vazifalarga (2022b) muvofiq 2022-yilda 12146 nafar nogironligi bo'lgan shaxs bandligini ta'minlashi kerak bo'lgan bo'lsa, shundan 3759 nafari bo'sh va zahiradagi ish o'rinaliga joylashtirilgan¹⁷, 2993 nafari kasbiy va tadbirdorlik ko'nikmalari hamda moliyaviy savodxonlik o'quv kurslariga jalb qilingan, 3010 nafari haq to'lanadigan jamoat ishlarida va 2384 nafari subsidiyali ishga jalb qilingan¹⁸.

DBX kvota tizimini boshqarish va ishsizlarni ro'yxatga olish bo'yicha mas'uldur. Ta'kidlanishicha, muassasa ro'yxatdan o'tkazish mas'uliyatiga mijozlarga individual xizmat ko'rsatishdan ko'ra, asosan ishga yo'llanmalar berishdagi ma'muriy vazifa sifatida qaraydi (XMT, 2021). DBX mijozlarni yetarlicha tasniflamaydi, masalan, ishsizlar va ish izlovchilar o'rtasidagi farq yo'qolgan. XMT hisobotida ko'rsatilishicha, DBX tizimi tomonidan yaratilgan ma'lumotlarni tizimlashtirib, tahlil qilib yoki tarqatib bo'lmaydi va ulardan dasturni boshqarish va o'zgartirish uchun foydalanilmaydi. Shuningdek, maslahat berish va yo'l-yo'riq ko'rsatish amaliyotlari ish izlovchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilmagan. Ish beruvchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar minimal bo'lib, bo'sh ish o'rinalarini ro'yxatdan o'tkazish va ishga qabul qilish uchun qonuniy talablar bilan cheklanadi (XMT, 2021). DBX rasmiylari ish beruvchining majburiyatiga qaramay, DBXga bildirilgan bo'sh ish o'rinalari soni cheklanganligini ta'kidlaydilar (XMT, 2021). Hududiy/mahalliy DBX ofislarida juda cheklangan xodimlar ishlaydi. Maqsadli guruhlarning turli ehtiyojlariga to'g'ri va samarali javob berish uchun bandlik bo'yicha maslahatchilarning malakasini oshirish kerak bo'lishi mumkin. Nihoyat, ma'lumotlar bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda. Masalan, ishsizlarning ishga joylashganligi haqida biron ma'lumot topilmadi. Bunday ma'lumotlarning nomutanosibligi DBX faoliyatini adekvat monitoring qilish va baholash imkoniyatlarini cheklaydi (XMT, 2021). XMT (2021) tomonidan chiqarilgan umumiyl xulosa shundan iboratki, DBX o'z potentsial bozorining kichik segmentiga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, XMT ma'lumotlariga ko'ra (2020), KQBV ham passiv, ham faol mehnat bozori choralarini kengaytirmoqda.

¹⁶ Nogironlar uchun odil sudlovdan foydalanish bo'yicha xalqaro tamoyillar va yo'rinqomalarining 2-tamoyiliga muvofiq "Nogironlarning kamsitilmagan holda odil sudlovdan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun muassasalar va xizmatlar hamma uchun ochiq bo'lishi kerak" – qarang:

https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/Issues/Disability/SR_Disability/GoodPractices /Access-to-Justice-EN.pdf

¹⁷ Bo'sh ish o'rinalari haqida onlayn ma'lumotlar bazasi mavjud <https://ish.mehnat.uz/>

¹⁸ Shuningdek qarang: Prezidentning 2021-yil 21-dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi"gi PQ-57-son qarori.

Monomarkazlar (Ishga Marhamat) yuridik shaxs (mas'uliyati cheklangan jamiyat) maqomiga ega bo'lgan holda, KQBVning tuzilmaviy tizimiga kiradi¹⁹. Ular ishsiz aholiga xizmat ko'rsatish, xususan, o'qitish bilan shug'ullanadi. 2023-yil 13-aprel kuni Toshkent shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazi va Toshkent shahridagi "Sharoit plus"²⁰ nogironlar jamoat birlashmasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi imzolandi. Mazkur hamkorlikdan ko'zlangan maqsad imkoniyati cheklangan shaxslarga zamonaviy kasb-hunarlarni o'rgatish, ochiq mehnat bozorida munosib ish topishda ularga har tomonlama ko'mak berishdan iborat²¹. Bu boradagi o'z chora-tadbirlaridan biri sifatida "Sharoit plus" nogironlarni qamrab oluvchi ishga qabul qilish portalini faoliyatini yuritadi²².

2.2 Ijtimoiy himoya

2022-yilda qabul qilingan va 2030-yilgacha amalda bo'lувчи Milliy Ijtimoiy Himoya Strategiyasi (MIHS) barcha fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning minimal darajasini ta'minlash maqsadida ijtimoiy himoyaning ustuvor yo'naliishlari va maqsadlarini belgilab beradi. Strategiyaga muvofiq, aholini ijtimoiy himoya qilishni kengaytirish, xususan, nogironlar kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarga alohida e'tibor qaratish maqsadida mamlakatda ijtimoiy ta'minotni boshqarish, moliyalashtirish va ta'minlashga oid yo'naliishlarda bir qator qonunlar va huquqiy-me'yoriy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritildi. Bu islohotlarga ijtimoiy himoya tizimining kam qamroviligi tufayli zarurat yuzaga kelgan. XMT, UNICEF va Jahon Bankining (2020) qo'shma hisobotiga ko'ra, aholining 55 foizi ijtimoiy himoya tizimi bilan qoplangan bo'lib, bu asosan, aholining 44 foizini qamrab oluvchi ijtimoiy sug'urta hisobidan ta'minlangan va kambag'allikda yashovchi har uch kishidan biri mavjud ijtimoiy himoya imtiyozlarining ba'zilaridan naflanadi²³. Nogironligi bo'lgan shaxslarga kelsak, uchta asosiy nogironlik nafaqasidan birini oluvchi sifatida ro'yxatga olingan 484 ming nafar shaxslar asosidagi ma'muriy ma'lumotlariga ko'ra, ularning 66% nogironlik bo'yicha ijtimoiy sug'urta, 30% bolalikdan nogiron deb topilganlar uchun nogironlik nafaqasini olgan va atigi 4% nogironlar uchun ijtimoiy pensiya olish imkoniyatiga ega bo'lgan (JB guruhi, 2022). Jahon Banki guruhi (2022) ma'lumotlariga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslar va ularning oilalari nogironlik bo'yicha nafaqalar yetarli emasligini va ular nogironlikning og'irlik darajasi va u bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni hisobga olmaganligini ma'lum qilganlar.

¹⁹ <https://mehnat.uz/en/subordinate-organizations/position/248>

²⁰ <https://sharoitplus.uz/en/about-us/>

²¹ <https://sharoitplus.uz/en/sharoit-plus-signed-a-memorandum-of-understanding-with-the-monocenter-ishga-markhamat/>

²² <https://ishplus.uz/summaries?lang=en>

²³ Bu erda keltirilgan ijtimoiy himoya ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy yordam va mehnat bozori dasturlarini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish maqsadida strategiyada quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan: majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash va muhtoj oilalar va shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatish dasturlarini kengaytirish; majburiy ijtimoiy kafolatlarni raqamlashtirish; mahalla darajasida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish; va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish, shu jumladan nogironlikni baholashning ijtimoiy modeliga o'tish, mehnat bozoriga integratsiyalashuv va reabilitatsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning boshqa vositalaridan foydalanishga ko'maklashish.

Ijtimoiy himoyaga davlat xarajatlarini (2020 yildagi 6 foizdan 2030 yilga borib 7 foizga) ko'paytirish orqali umumiyligi kambag'allik darajasini 2021 yildagi 17 foizdan 2030 yilga borib 5 foizga kamaytirish va kam ta'minlangan oilalar orasida ijtimoiy yordam oluvchilar ulushini oshirish (2020 yildagi 59 foizdan 2030 yilga kelib 98 foizgacha) MIHSda ko'rsatilgan maqsadlar qatoridan o'rinni olgan. Ushbu maqsadlarga erishish turli xil ijtimoiy himoya dasturlarini samarali muvofiqlashtirish va boshqaruvning barcha darajalarida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi.

Shu maqsadda hukumat tomonidan amalga oshirilgan muhim qadam – bu ijtimoiy himoyani rivojlantirish va amalga oshirish uchun mas'ul yagona milliy organ – Ijtimoiy Himoya Milliy Agentligi (IHMA) tashkil etilishi bo'ldi²⁴. Quyidagi 1-rasmida hozirda 10,8 million kishini qamrab oluvchi Agentlik mandati ostidagi turli imtiyozlar (jumladan, nogironlik nafaqasi va bolalar nogironligi bo'yicha nafaqalar) ko'rsatilgan.

²⁴ Ijtimoiy himoyani ta'minlashning huquqiy asoslari tegishli qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari bilan belgilangan (Manba'lar ro'yxatiga qarang). Masalan, "Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi Qonunda (O'zbekiston Respublikasi Hukumati, 2022/2016 y.) markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish, qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish bo'yicha vakolatlari belgilangan.

1-rasm:**Ijtimoiy yordam dasturlari****ASOSIY FAKTLAR**

Agentlik 12 ta ijtimoiy yordam dasturini amalga oshiradi:

**"Ijtimoiy himoyaning yagona reyestri"
Axborot tizimi**

1. Kam ta'minlangan oilalar uchun bolalar nafaqasi
2. Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam
3. Homiladorlik va tug'ish uchun alohida e'tibor
4. Sobiq mahkumlar uchun ijtimoiy yordam paketi

**"Yagona milliy ijtimoiy himoya" Axborot
tizimi**

1. Yoshga oid nafaqa
2. Nogironlik imtiyozlari
3. Tazyiqdan omon qolganlar uchun yordam
4. Nogiron bola uchun nafaqa
5. Nogiron bolaga g'amxo'rlik qilish uchun nafaqa
6. Bola tug'ilganda bir martalik to'lov
7. Dafn marosimi uchun bir martalik to'lov

Raqamlı to'lov emas

1. Qoraqlapog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati uchun bir martalik moddiy yordam

**UMUMIY QAMROV:
10,8 million Inson**

Manba: IHMA, 2024

Yana bir muhim chora – Ijtimoiy himoyaning yagona reyestri va Yagona reestrini o'z ichiga olgan raqamlı axborot tizimlarini yaratish bilan bog'liq (1-rasmga qarang). Ikkinchisi turli vazirlik va idoralardan to'plangan 12 turdag'i ma'lumotlarni birlashtiradi, shu jumladan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar, fuqarolik holati to'g'risidagi ma'lumotlar, nogironlik guruhi va davomiyligi kabi nogironlar to'g'risidagi ma'lumotlar, imtiyozlari to'g'risidagi ma'lumotlar²⁵. Bu allaqachon ijobiy natijalarni berib, benefitsiarlar sonini oshirdi. 2023 yilda 10,8 million kishi IHMAning 12 ta ijtimoiy yordam dasturi bo'yicha nafaqalarini olgan (IHMA, 2024). Shuningdek, ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam olgan oilalar va bolalar soni ortdi (masalan, bolalar nafaqasi va moddiy yordam oladigan kam ta'minlangan oilalar soni 2021 yildagi 1,2

²⁵ Ma'lumotlarning 12 turi (IHMA, 2024): 1) Daromadlar (ish haqi, mulkiy daromadlar, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalarda belgilangan boshqa daromadlar, tadbirdorlik faoliyati, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirdorlik faoliyati); 2) fuqarolik holati (nikohni qayd etish, nikohni bekor qilish, tug'ilish va o'lim to'g'risidagi ma'lumotlar); 3) Ko'chmas mulkka egalik qilish; 4) nafaqa oluvchilar va Pensiya jamg'armasidan pensiyalar va nafaqalar miqdori to'g'risida; 5) ish haqini to'lashdan oldin elektron hisob-kitoblarni yuborish, talab qilinmagan mablag'larni mahalliy byudjetga qaytarish; 6) transport vositasiga egalik huquqi (ishlab chiqarilgan sana, davlat raqami, texnik holati, umumiy ishonchnoma, transport vositasining turi); 7) qamoqxonalardagi oila a'zolari; 8) ariza beruvchiga/oila a'zolariga mehnat organlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar, jamoat ishlarida qatnashish, ishsiz deb e'tirof etilganligi, to'lanadigan ishsizlik nafaqalarini miqdori, jamoat ishlarida qatnashishdan olingan daromadlar; 9) oila a'zolarining talaba sifatidagi maqomi (oliy ta'lim muassasasi, kollej, texnikum, litsey, kasb-hunar maktabi, ta'lim yo'naliши, o'quv kursi); 10) to'langan va olingan alimentlar; 11) nogironligi bo'lgan shaxslar (nogironlik guruhi va davomiyligi); 12) Moliyaviy qimmatli qog'ozlar (miqdori va bozor qiymati, nominal qiymati bozor qiymati bo'lmaganda olinadi).

milliondan 2022 yilda 2,1 millionga, ya'ni 75 foizga o'sdi; bunda 4,6 million bolalar ham qamrab olingan) (BMT, 2022)²⁶.

Mahalliy darajada ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha yaqinda amalgalashirilgan qo'shimcha chora-tadbirlar ijtimoiy ish standartlari va mezonlari bo'yicha yo'riqnomani qabul qilish orqali ijtimoiy ishlarni rasmiylashtirish va professionallashtirishni; ijtimoiy ta'minot xizmatlari va imtiyozlari bilan shug'ullanuvchilar uchun treninglar o'tkazish, shu jumladan ishlarni boshqarish bo'yicha (hisobotning 3-bobiga qarang); tuman miqyosida INSON ijtimoiy xizmatlar markazlarini tashkil etish orqali ijtimoiy xizmatlarning yangi tizimini joriy etishni o'z ichiga oladi. INSON Ijtimoiy Xizmat Markazlari mahalliy kesimda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda markazlashtirilgan manbalar bo'lishi kutilmoqda, ulardagi mahalliy mutaxassislar alohida shaxslar yoki oilalar, shu jumladan nogiron bolalar va kattalar ehtiyojlariga moslashtirilgan integratsiyalashgan ijtimoiy himoyani ta'minlashda ko'priq vazifasini o'taydi. Ularning vazifalari qatorida maqsadli guruhga targ'ibot ishlarini olib borish, ya'ni ijtimoiy xizmatlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash, ularni tegishli davlat hokimiyati organlariga yo'llash va ularni qo'llab-quvvatlash uchun mavjud imtiyozlar va xizmatlar haqida fuqarolarni xabardor qilish kiradi.

3 O'zbekistonda integratsiyalashgan keys-menejmentni tadbiq etish

O'zbekistonda so'nggi paytlarda amalgalashirilgan islohotlarga qaramay, milliy qonunchilik va nogironlar bo'yicha siyosat asoslarining yuqorida tahlili kelgusida islohotlar davom ettirilishi zarurligini ko'rsatadi. **Ijtimoiy va mehnat bozori xizmatlari hanuz tarqoq va ko'p hollarda ushbu ikki siyosat sohasi institutlari va chora-tadbirlari o'rtasida muvofiqlashtirish mexanizmlari mavjud emas.** Integratsiyalashgan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish uchun O'zbekistonda birinchi navbatda ijtimoiy sohada amaliyotda qo'llaniladigan keys menejmentni tadbiq qilish bo'yicha tajriba-sinov harakatlari bandlik va ijtimoiy siyosat o'rtasida

²⁶ Mahalliy darajada ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha amalgalashirilgan so'nggi chora-tadbirlar quyidagilardan iborat: 1) ijtimoiy ishlarni rasmiylashtirish va professionallashtirish, xususan, ijtimoiy ish standartlari va mezonlарini belgilash to'g'risidagi qonun hujatlari qabul qilindi; 2) tumanlar miqyosida Ijtimoiy xizmatlar markazlarini (INSON) tashkil etish orqali ijtimoiy xizmatlarning yangi tizimini joriy etish (2023 yilda 28 ta tuman va shaharlarda Ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etilgan, biroq ularni hali ham respublika miqyosida yo'iga qo'yish zarur); va 3) ijtimoiy ta'minot xizmatlari va imtiyozlari bilan shug'ullanuvchilar, xususan, INSON Ijtimoiy Xizmatlar Markazlarining ijtimoiy xodimlari, shuningdek, mahallalarda kam ta'minlangan oilalar bilan ishlaydigan jamoatchilik mutaxassislari uchun treninglar o'tkazish, shu jumladan vaziyatni boshqarish (keys menejment) bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazish.

integratsiyalashgan keys menejmenti uchun muhim kirish nuqtasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Dasturlar va institutlar o'rtasidagi muvofiqlashtirishni yaxshilash zarurati ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan ta'kidlangan (XMT, 2021; XMT, UNICEF va Jahon Banki, 2020; UNPRPD, 2022, Jahon Banki guruhi, 2022 va boshqalar). Masalan, XMT, UNICEF va Jahon Banki (2020) MIHSga oid dasturlar va muassasalar o'rtasida muvofiqlashtirishni kuchaytirishni tavsiya qiladi. O'zbekistonda nogironlar bilan bog'liq vaziyat tahlili (UNPRPD, 2022) tibbiy, reabilitatsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ta'lif xizmatlari o'rtasida ko'p tarmoqli muvofiqlashtirish yetarli darajada emasligini qayd etadi. Bandlikka kelsak, XMT mehnat bozori dasturlarini muvofiqlashtirishning cheklanganligi va "DBX xizmatlarini yetkazib berish qismlari uchun mas'ul bo'lgan juda ko'p alohida bo'linmalar" haqida hisobot beradi (XMT, 2021, 47-bet).

Bandlik va ijtimoiy siyosat dasturlari va markaziy darajadagi institutlar o'rtasidagi cheklangan hamkorlik benefitsiarlarga va submilliy darajalarda qo'llaniladigan hamkorlik mexanizmlariga, masalan, mahalla darajasidagi tegishli sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlikka katta ta'sir ko'rsatadi. **Hukumatning barcha darajadagi ishtirokchilarida tengsizlik va kambag'allik kabi murakkab ijtimoiy muammolarni ular yakka holda hal qila olmasligi haqida umumiy tushunchani** shakllantirish zarur.

Sherikchilik hamkorlikning ilg'or shakli sifatida tushuniladi (Scopetta, 2013) va davlat idoralari o'rtasidagi munosabatlardan kengroq maydonni qamrab oladi. Sherikchilik sheriklarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini tavsiflaydi va masalan, nogironlarning shaxsiy yordamchilari kabi nogironlarni qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) va nogironlarga ish o'rirlari taklif qiluvchi va bunday ish o'rirlarini nogironlarning o'ziga xos ehtiyojlariha moslashtirish bilan shug'ullanuvchi xususiy firmalar bilan ittifoqlarni o'z ichiga oladi (quyida "Ish o'rirlarini yaratish o'ymakorligi va hunarmandchiligi"ga qarang). **Sherikchilik bandlik va ijtimoiy ta'minot siyosatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega** va ko'plab mamlakatlarda qo'llaniladi (masalan, Scopetta va boshqalar, 2024; Davern va boshqalar, 2021; Scopetta, 2013). Yevropa Ittifoqi (YI) doirasida manfaatdor tomonlar bilan sherikchilikda ishslash Yevropa Ittifoqi mablag'larini boshqarishning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, Sherikchilik bo'yicha Yevropa xulq-atvor kodeksida (Yevropa Komissiyasi, 2014 yil) qonunan mustahkamlangan²⁷. Sherikchilik BMTning 2030 yilgacha kun tartibiga va uning BRMLariga hissa qo'shishda e'tirof etiladi. 17-maqсад barqaror rivojlanish uchun global hamkorlikni jonlantirishga chaqiradi²⁸.

²⁷ Kodeks qayta ko'rib chiqilishi ko'zda tutilgan. Loyiha taklifi hamkorlik bo'yicha Yevropa amaliy hamjamiyatining (ECoPP) kichik guruhi a'zolari tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarga asoslanadi – qarang: https://ec.europa.eu/regional_policy/policy/communities-and-networks/ecopp_en.

²⁸ <https://www.un.org/sustainabledevelopment/globalpartnerships/>

Manfaatdor tomonlar nogironlarga butun integratsiya zanjirida yaxshiroq yordam berish uchun kuchlarini birlashtiradigan hamkorlikni rivojlantirish IKM uchun birlamchi shartlaridandir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, IKM **mehnat bozori va ijtimoiy himoya tizimi va hatto undan tashqarida ham barcha mavjud resurslar bilan eng zaif qatlamlarga xizmat ko'rsatish uchun ishtirokchilar tomonidan birqalikda qo'llaniladigan innovatsion amaliyot** sifatida tushuniladi. Shunday qilib, muassasalar maqsadli guruh manfaati uchun ko'nikmalar, vaqt, moliyalashtirish va bilim bilan IKMni amalga oshirish yo'lida birlashadilar va o'z xissalarini qo'shadilar.

Ayni paytda O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni mikro va makro darajada keys-menejmentga asoslangan qo'llab-quvvatlash yo'q. Bundan tashqari, integratsiyalashgan keys-menegment, ya'ni bandlik va ijtimoiy siyosat bo'yicha shaxslarning ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmat mavjud emas. Biroq, dalillar shuni ko'rsatadiki, keys-menegment nogironligi bo'lgan odamlar uchun ayniqsa samarali yondashuvdir, chunki ularning ehtiyojlari ko'pincha bir nechta provayderlardan moslashtirilgan va maxsus yordam va xizmatlarni talab qiladi (IHTT, 2023).

Ta'kidlanganidek, mamlakatda ijtimoiy va bandlik xizmatlari hanuz tarqoq va turli vazirlik va idoralar o'rtaсидagi aloqalarning yetarli darajada yo'qligi ularning tezkorligi va samaradorligini pasaytiradi (JB guruhi, 2022). "O'zbekistonning ijtimoiy himoya tizimini strategik, institutsional va dasturiy darajalarda integratsiyalashuvi va mustahkamlanishiga erishish uchun yaxshi muvofiqlashtirilgan huquqiy va siyosiy baza zarur" (XMT va boshq., 2020). Idoralararo muvofiqlashtirishni rivojlantirish jamiyat darajasida muhtoj odamlarga yaxshiroq yordam berish va NHTKni to'liq amalga oshirish borasida mamlakatni qo'llab-quvvatlash uchun juda muhimdir. O'zaro yaxshiroq muvofiqlashtirishi lozim bo'lgan sohalar, masalan, bandlik, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, ta'lif va boshqa sohalarda ishlab chiqilgan dasturlarni muvofiqlashtirishni kuchaytirishdan so'ng integratsiyalashgan keys-menejmentni joriy qilish zarur bo'ladi.

Ijtimoiy xizmatlarda keys-menejment turli xalqaro tashkilotlar va olimlar tomonidan alohida tavsiya etiladi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi (2019) ishlab chiqilishi va joriy etilishi kerak bo'lgan jamiyatga asoslangan aralashuvlar va keys-menejment yondashuvlarini targ'ib qiladi. Bunda, nogironlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash zarurligiga alohida e'tibor qaratiladi. Agentlikning tuman/shaharlaridagi INSON ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlarida ishga qabul qilingan ijtimoiy soha xodimlarining mahallalar darajasida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni maxsus tashkil etish bo'yicha vazifalariga nisbatan Prezident qarorida keys-menejment usulidan foydalanish nazarda tutilgan. Ijtimoiy ishchilar guruhlari "*ehtiyojmand aholi bilan, shu jumladan keys-menejment usulini qo'llagan holda samarali ish tashkil qilishi*" kerak (O'zbekiston Hukumati, 2023b).

Jahon Bankining "Ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash" (2019-2024) loyihasida DBX ish bo'yicha maslahatchilarning ish bilan ta'minlanganligini samarali va barqaror o'tkazish bo'yicha salohiyatini oshirish, ularda aholining ijtimoiy ta'minlangan

guruhlariga alohida e'tibor qaratish nazarda tutilgan (JB guruhi, 2022 yil). Ushbu qo'llab-quvvatlash individuallashtirilgan keys-menejment metodologiyasini va samarali profillash vositalarini ishlab chiqishni va kvotadan tashqari holda ijtimoiy zaif ish izlovlchilarni yollagan ish beruvchilar uchun ish haqi subsidiyalarini taqdim etishni o'z ichiga oladi (JB guruhi 2022). Jahon Banki guruhi (2022) mahallalar kabi mavjud jamoat tuzilmalaridan foydalangan holda JSSTning hamjamiyat asosidagi reabilitatsiya ko'rsatmalarini amalga oshirish orqali jamiyat darajasida ijtimoiy xizmatlar va keys-menejment amaliyotini kuchaytirishni tavsiya qiladi.

BMTTD, XMT va UNICEFning (2020-2022) Qo'shma ish dasturi *doirasida ijtimoiy xizmatlarni kompleks tarzda ko'rsatishga* ko'maklashish maqsadida keys-menejment yondashuvi va modeli joriy etildi²⁹. Ushbu ishning o'ziga xos tarkibiy qismlari sifatida kompleks ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda keys-menejmentni qo'llash bo'yicha kontseptsiyani ishlab chiqish va qo'shma ish rejalarini tuzish va imzolash amalga oshirildi. 2021-yilda UNICEF bilan birgalikda ijtimoiy xizmatlarni integratsiyalashuvi uchun keys-menejment modellarini sinovdan o'tkazish maqsadida keys-menejment bo'yicha pilot loyiha ishga tushirildi. Tajriba 106 oilani, shu jumladan 192 bola (101 o'g'il va 91 qiz), jumladan 12 nogiron bolani (8 o'g'il, 4 qiz) qamrab oldi. Loyiha Toshkent va Angren shaharlarida joylashgan mutaxassislarni tayyorlash kursidan boshlandi (pastga qarang). Bundan tashqari, pilot tumanlarda ijtimoiy sektor rahbarlari uchun treninglar ishlab chiqildi va o'tkazildi: bu treninglar ishtirokchilarni keys-menejment yondashuvi bilan tanishtirish, ularga keys-menejment standartlari va ularni ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda qanday qo'llashlari haqida ma'lumot berishga qaratilgan bo'ldi. Ishtirokchi mutaxassislar asosan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, jumladan, nogironlar bilan ishladilar. Qo'shma ish dasturi bo'yicha baholash hisobotida ma'lum qilinishicha, tajriba va treninglar ijobiy natijalar bergen. Biroq, hisobot paytida, keys-menejment bo'yicha pilot loyihaning keng tadbiq etilishi kuzatilmadi (Konterra guruhi, 2022)³⁰.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekiston bo'yicha 2022 yilgi mamlakat hisobotida ham (BMT, 2023) Surxondaryo viloyatidagi 200 ta mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi ijtimoiy xodimlar uchun keys-menejment yo'lga qo'yilgani ma'lum qilingan. 681 nafar faol ayollar va tuman miqyosidagi mutaxassislar keys-menejment bo'yicha o'qitildi. Yaqinda IHMA

²⁹ <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/press-releases/community-based-social-services-contribute-enhancing-social-protection-uzbekistan>

³⁰ Baholovchilar qamrovni kengaytirish bo'yicha olgan sabqlari quydagicha (Konterra guruhi, 2022, x sahifa): qamrovni kengaytirish modellari uchun modellashtirish aralashuvi boshlanganidan beri hukumat bilan kelishilgan aniq ramkalar talab qilinadi. O'zbekistonda yondashuvar va mexanizmlarni modellashtirish tajribasi vaqt bilan chegaralangan o'tish tizimi yoki hukumat bilan birgalikda ishlab chiqilgan topshirish rejasining dolzarbligi va zarurligini ko'rsatadi. Bunday rejalar erishmoqchi bo'lgan narsa va uni qanday kengaytirish bo'yicha aniq bosqichlar va mezonlar bo'lishi kerak. Shu asnoda u modellashtirish aralashuvining asosi bo'lishi kerak. Bunday rejalar milliy manfaatdor tomonlar bilan mutazam ravishda ko'rib chiqilishi va muhokama qilinishi zarur bo'lib, bu o'z navbatida, modellar ko'lамини kengaytirishni ta'minlashning yaxshi usulidir.

va UNICEF o'rtasidagi (va YI tomonidan qo'llab-quvvatlangan) ikki tomonlama ish dasturi doirasida 350 nafar mutaxassis (masalan, mahalliy hukumat amaldorlari, ijtimoiy xodimlar) uchun 3 kunlik treninglar o'tkazildi. Trening bolalarni himoya qilish xizmatlari (masalan, ehtiyojlarni baholash, zaif vaziyatlarni aniqlash va oilalar va bolalarga yordam ko'rsatish ko'nikmalarini o'tkazish) bilan bog'liq ijtimoiy ishda samarali keys-menejmentga bag'ishlandi³¹.

Garchi O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlarda kompleks yechimlarni taqdim etishda keys-menejment bo'yicha tajriba mavjud bo'lsa-da, u birinchi navbatda ijtimoiy xizmatlar bilan bog'liq va ko'pincha bandlik va ijtimoiy himoya o'rtasida qo'llaniladigan kompleks yondashuvga ega emas. Shunga qaramay, bu tajribalar juda qimmatlidir va bandlik va ijtimoiy siyosat o'rtasida integratsiyalashgan keys-menejment uchun muhim kirish nuqtasi bo'lib xizmat qilishi mumkin (quyida qarang). Qonunlar va siyosatlar, jumladan, ijtimoiy himoya va mehnat tizimlari bo'yicha o'rta muddatli va uzoq muddatli davlat dasturlari bo'yicha adabiyotlarni ko'rib chiqishimiz natijasida boshqaruvning turli darajalarida qo'llaniladigan kompleks yondashuvlar zarurligini tasdiqlandi. Bu nogironlarga integratsiyalashgan xizmatlarni ko'rsatish uchun markaziy darajadagi tegishli siyosat sohalari o'rtasida mustahkamlangan hamkorlikni o'z ichiga oladi.

Hisobotning keyingi qismida biz integratsiyalashgan xizmatlarni loyihalash va joriy etishda boshqa mamlakatlar tajribasini tushunish imkonini beruvchi istiqbolli xalqaro amaliyotlarni tavsiflaymiz.

4 Iстиқболли халқаро амалийотлар

IKM ham, hamkorlik ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa Ittifoqi (UNECE) mamlakatlarida tez-tez qo'llaniladi (masalan, Akilova va boshqalar, sana yo'q; Birtha va boshq., 2022; Scopetta & Sandu, 2022; Scopetta va boshqalar, 2018; Stott & Scopetta, 2011, 2013a va b). Yevropada ko'plab keys-menejment amaliyotlari mavjud, masalan, Daniyadagi "Digitalized Case Management" va Sloveniyada "Murakkab muammolari bo'lgan mijozlar bilan hamkorlik" (Scopetta & Sandu, 2022) kabi. Shuningdek, yagona aloqa nuqtalari amaliyoti ham qo'llaniladi (masalan, Norvegiya mehnat va farovonlik ma'muriyati (NAV) islohoti³²). Yevropa markazining "Bridge Building (BB)" (Ko'prik hosil qiluvchi) mamlakatlari³³ ochiq maslahat

³¹ <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/press-releases/strengthening-support-families-and-children-surkhandarya-region>

³² <https://www.nav.no/hva-er-nav/en>

³³ Yevropa Markazining BB mamlakatlariga G'arbiy Bolqondan Albaniya, Bosniya va Gersegovina, Kosovo, Chernogoriya, Shimoliy Makedoniya va Serbiya hamda Sharqiy hamkorlik davlatlaridan

mexanizmlari (masalan, Armaniston) va ko'p darajali boshqaruv (masalan, Kosovo) kabi o'ziga xos hamkorlik komponentlarini qo'llaydi. Turli ishtirokchilar, shu jumladan Yevropa markazi³⁴ tomonidan mamlakatlar konteksti va maqsadli guruuhlar ehtiyojlariga moslashtirilgan IKM modellarini qo'llashda mamlakatlarga yordam berish uchun sa'y-harakatlar amalga oshirildi³⁵. Bandlik, ijtimoiy himoya va mahalliy iqtisodiy rivojlanish kabi bir qator siyosat sohalari ishtirokchilari o'rtasida qizg'in hamkorlikni rivojlantiruvchi tashabbuslar qatorida IHTTning Hamkorlik va mahalliy rivojlanish bo'yicha LEED forumi³⁶, Hamkorlik brokerlari uyushmasi³⁷ (2019; Tennison 2004, 2005) va Hamkorlik tashabbusi va BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti (BMT DESA)³⁸. Milliy darajada, Yevropa Ijtimoiy Jamg'armasi+ (ESF+) Flandriyadagi hamkorliklar misol bo'la oladi (Meyers, 2023).

Biz quyida mamlakatga IKMni joriy etishda (4.1. va 4.3-bandlarni ko'ring) qo'l kelishi mumkin bo'lgan to'rtta istiqbolli amaliyotni va tegishli zarur harakatlarni, masalan, munitsipalitetlar tomonidan foydalanish mumkin bo'lgan raqamli platformalar (4.2 ga qarang) va nogironlar uchun maqsadli bandlik dasturlar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etamiz. (4.4.ga qarang). Yuqorida aytib o'tilganidek, **IKM bandlik va ijtimoiy himoya organlari tomonidan mehnat bozori va ijtimoiy himoya tizimi va hatto undan tashqaridagi barcha mavjud resurslar bilan eng zaif qatlamlarga xizmat ko'rsatish uchun birgalikda qo'llaniladigan innovatsion amaliyot sifatida tushuniladi**. Misollar Litva, Kosovo, Armaniston va Maltadan bo'lib, bu mamlakatlar ularning transfer imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tanlangan.

4.1 Litvada keys-menejment modeli³⁹

Ushbu tajriba O'zbekiston uchun **bandlik va ijtimoiy siyosat** o'rtasida qo'llaniladigan keys-menejment yondashuvi bo'yicha istiqbolli amaliyot bo'lib xizmat qiladi, ammo maqsadli guruuh O'zbekistonnikidan farq qiladi. Tegishli asosiy ma'lumotlar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Litvadagi amaliyot bo'yicha asosiy ma'lumotlar

Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Moldova va Ukraina kiradi. (see <https://www.euro.centre.org/aboutus/bridging>).

³⁴ Bunga BMTTD, XMT, ADA (Avstriya taraqqiyot agentligi), shuningdek, Avstriya Ijtimoiy ishlar, sog'liqni saqlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish federal vazirligi kiradi..

³⁵ Masalan, qarang: "Armaniston va Tojikistonda ijtimoiy himoya va bandlik xizmatlarini ko'rsatishni muvofiqlashtirishni takomillashtirish" (<https://www.euro.centre.org/projects/detail/4261>) va "G'arbiy Bolqonda bandlik va ijtimoiy ta'minot foydalanuvchilari uchun integratsiyalashgan keys-menejment" (<https://www.euro.centre.org/projects/detail/205>)

³⁶ <https://www.oecd.org/fr/cfe/leed/forumpartnerships.htm>

³⁷ <https://partnershipbrokers.org/>

³⁸ <https://sustainabledevelopment.un.org/partnerships/guidebook>

³⁹ Agar boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, bu yerda keltirilgan ma'lumotlar Litva DBXsining Power Point slaytlaridan olingan. (Kamanduliené, 2022).

Asosiy xususiyatlari	Pilot loyiha keys-menejment boy'icha lokomotiv sifatida DBX tomonidan amaga oshirilgan
Maqsadlar	<ul style="list-style-type: none"> • xizmatlar va tadbirlarni muvofiqlashtirish • hokimiyat, nodavlat notijorat tashkilotlari va ish beruvchilar o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlash • ko'p muammoli ishsizlarning ijtimoiy va mehnat bozoriga integratsiyalashuvini oshirish
Maqsad guruhi	30 yoshdan oshgan uzoq muddatli ishsizlar yoki ishsizlar, ijtimoiy yordam oluvchilar
Yil/Davomiyligi	2020 yil yanvar – 2022 yil iyun
Sheriklar	Hudud ma'muriyatlari, DBX, NNT va ish beruvchilar
Natija	Modelga 900 nafar ishtirokchi jalb qilingan
Qo'llash mumkin bo'lган jihatlari	Turli ishtirokchilar, shu jumladan NNTlar bilan hamkorlikda o'rnatilgan, amaliy IKM modeli.

Manba': Kamanduliené, 2022


Litvada keys-menejmentning bir nechta modellari qo'llaniladi, masalan, og'ir vaziyatda bo'lgan bolali oilalar va yoshlar uchun bolalarni himoya qilish xizmatlarida (IHTT, 2023). Bu yerda tasvirlangan, DBX boshchiligidagi amalga oshirilgan keys-menejment bo'yicha pilot loyihaning maqsadlari munitsipalitetlar va DBX tomonidan birgalikda taqdim etiladigan xizmatlar va chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish hamda ko'p muammoli ishsizlarni ijtimoiy integratsiyasi va mehnat bozoriga integratsiyasi darajalarini oshirish maqsadida hokimiyat, NNT va ish beruvchilar o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlashdan iborat bo'lgan. Model bitta aloqa nuqtasidan foydalangan, intensiv qo'llab-quvvatlash va faollashtirishni ta'minlagan va shaxsiylashtirilgan rejalar bilan individual yondashuvni qo'llagan.

Hamkorlar (shahar ma'muriyatlari, DBX, NNT va ish beruvchilar) o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolangan. Pilot loyihani qo'llab-quvvatlovchi qarorlar qabul qilingan. Maqsadli guruhga 30 yoshdan oshgan uzoq muddatli ishsizlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan nafaqa oluvchilar, shuningdek, ish qidirish uchun nafaqa oladigan ishsizlar kiritilgan. Pilot loyihada 900 ishtirokchi jalb qilindi va loyiha 2,5 yil davomida (2020 yil yanvar - 2022 yil iyun) amalga oshirildi. DBX va deyarli barcha munitsipalitetlar xizmat foydalanuvchilarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus keys xodimlariga ega, jumladan, murakkabroq holatlarda yordam berish uchun muassasa mutaxassislari jalb qilinadi (IHTT, 2023).

Model barqaror bandlikni kuzatish va ta'minlashga qaratilgan (2-rasmga qarang). Ish izlovchilar DBX axborot tizimidan foydalangan holda, Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi va munitsipalitetlar bilan ma'lumotlar almashinushi, bandlik imkoniyatlarini baholash natijalari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash idoralari bilan bevosita aloqada bo'lishi mumkin bo'lgan nomzodlar bo'yicha tanlab olingan. Loyiha faoliyatida ishtirok etganidan keyin 28 kun ichida ish bilan ta'minlangan ishtirokchilarning 30 foizi

barqaror bandlikka maqsad qiligan ko'rsatkich sifatida belgilandi va qo'shimcha vazifa sifatida ishtirokchilarning kamida 25 foizini 6 oy davomida ish bilan ta'minlagan holda ushlab turishga erishish belgilandi.

2-rasm: Litva keys-menejment modeli



Manba': Litva DBXsi tomonidan qilingan qildimot slaydlari (Kamandulienè, 2022)

DBX ma'lumotlariga ko'ra, modelning kuchli tomonlari mahalliy hokimlik va DBX yordamini muvofiqlashtirish va NNTlarni jalb qilishdan iborat bo'lgan. Ular DBX salohiyatidagi bo'shilqlarni to'ldirishga yordam berishdi. Aniqlangan zaif tomonlar - bu qaydlarni saqlash va hisobot berishni osonlashtirish uchun umumiyl IT platformasining yo'qligi (shuning uchun quyida AIIP platformasi misoliga qarang) va maqsadli guruhning integratsiya uchun yuqori xarajatlar talab qiladigan darajada murakkabligi. DBX barcha hamkorlar nafaqaxo'rlikdan bandlikka o'tishning dolzarbligini tushunishlari zarurligini ta'kidlaydi va real maqsadlari belgilanishi kerakligiga urg'u beradi. Faoliyatlarning mazmun tarkibini, shu jumladan "yumshoq" natijalar va individual rivojlanishni kuzatish hamkorlar tomonidan amalga oshirildi.

O'zbekiston konteksti uchun amaliyotdan qo'llash mumkin bo'lgan jihatlarga amaliyotda qo'llaniladigan IKM modeli va turli ishtirokchilar, shu jumladan NNTlar o'rtasida o'rnatilgan hamkorlik kiradi.

4.2 Kosovoda faol inkiyuziya asosida integratsiya platformasi (AIIP)

Ushbu amaliyotning maqsadli guruhi umuman ish izlovchilar bo'lsa-da, Kosovoda **ijtimoiy himoya va bandlik o'rtasida qo'llaniladigan integratsiyalashgan platforma**

tufayli amaliyot O'zbekiston uchun istiqbolli amaliyot bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda qo'llanilayotgan "Ijtimoiy himoyaning yagona reestri" mamlakatda ijtimoiy himoya tizimini isloh qilishning umumiyligi strategiyasining bir qismidir. Ayni vaqtida, AIIPning maqsadi DBX ya Ijtimoiy ish markazlari (IIM) orqali marginal guruhlar uchun integratsiyalashgan va foydalanuvchilarga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatishning institutsional lashtirilgan modellarini rivojlantirishdan iborat. Bundan tashqari, u boshqaruvning turli darajalari va sub'ektlarini (masalan, munitsipalitetlarni) o'z ichiga oladi. Tegishli asosiy ma'lumotlar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

Table 3: Kosovodagi amaliyot bo'yicha asosiy ma'lumotlar

Asosiy xususiyatlari	Institutlar tomonidan qo'llaniladigan va ish izlovchilarning (bandlik va ijtimoiy ta'minot) tarixini taqdim etuvchi integratsiyalashgan platforma
Maqsadlari	<ul style="list-style-type: none"> DBX va IIMlar orqali marginal guruhlar uchun integratsiyalashgan va foydalanuvchiga yo'naltirilgan xizmatlarni taqdim etishning institutsional modellarini rivojlantirish. mahalliy ko'p manfaatli sherikliklarning bandlik bo'yicha inklyuziv tashabbuslarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun imkoniyatlar va resurslarni oshirish.
Maqsadli guruuh	Ish izlovchilar
Yil/Davomiyligi	2020 yildan boshlab
Sheriklari	Ijtimoiy ish markazlari (IIMlar), DBX va 37 munitsipalitetdagi ofislar, Moliya, mehnat va transferlar vazirligi
Qo'llash mumkin bo'lgan jihatlari	O'zbekiston uchun potentsial qiziqish uyg'otadigan AIIP funksiyalari (masalan, DBX doirasidagi jarayonlarni raqamlashtirish; Yoshlar kafolati sxemasini muvofiqlashtirish/tatbiq etish, munitsipalitetlar tomonidan qo'llanilishi va h.k.) batafsilroq o'rganilishi lozim.

Manba': Scopetta et al., 2024

AIIP Kosovo hukumati va BMTTD, XMT va Yevropa markazi o'rtaida 2019-yilda G'arbiy Bolqonda amalga oshirilgan qo'shma IKM loyihasiga asoslangan tashabbusdir⁴⁰. Platforma Ijtimoiy ish markazlari (IIM), Bandlik agentligi⁴¹ (DBX) va Moliya, mehnat va transferlar vazirligi bilan birgalikda 37 munitsipalitetdagi idoralar o'rtaidagi hamkorlikka asoslangan.

Loyihaning maqsadlari DBX va IIM orqali marginal guruhlar uchun integratsiyalashgan va foydalanuvchiga yo'naltirilgan xizmatlarni taqdim etishning institutsional lashtirilgan modellarini rivojlantirish va mahalliy ko'p manfaatli sherikliklarning inklyuziv bandlik tashabbuslarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun imkoniyatlar va resurslarni oshirishdan iborat. O'zbekiston singari Kosovoda


⁴⁰ <https://www.euro.centre.org/projects/detail/205>

⁴¹ <https://aprk.rks-gov.net/>

ham norasmiylik yuqori. Kosovodagi norasmiy sektor Yevropadagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga ega hisoblanadi: ishchilarning 35% ga yaqini norasmiy sektorda ishlaydi (2017 yil ma'lumotlari)⁴².

DBXva ijtimoiy yordam sxemalari bo'limining AIIPi Bandlikni boshqarish axborot tizimi (EMIS) va ijtimoiy yordam tizimini (SAS) bog'laydigan moduldir. EMIS SAS ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanadi va imtiyozlar, shu jumladan to'lovlar tarixi haqida ma'lumot oladi. Barcha mavjud (va yangi) ish izlovchilar uchun SAS shakli ish izlovchilarning ta'lim darajasi, bandlik/ishsizlik holati, ALMP tarixi va ishdan bo'shatishdan bosh tortishni o'lichashni EMISdan o'tkazish/ro'yxatdan o'tkazish uchun ishlab chiqilgan (3-rasmga qarang). Ushbu modul o'rnatilgan va SAS ma'lumotlar bazasi bilan aloqada bo'lgan holda, ish izlovchilar endi DBXdan ishsizlik hujjatining jismoniy nusxasini olishlari va uni IIMga topshirishlari shart emas, chunki IIM rasmiylari ishsizlik hujjatini EMISdan olishadi (Scopetta va boshq., 2024).

3-rasm: Kosovoda AIIP



Manba': Kosovo DBX tomonidan tayyorlangan slaydlar (Mujku & Kalludra, 2022).

AIIP bo'yicha o'tkazilgan ekspertiza ishtirokchilari G'arbiy Bolqon va Sharqiy hamkorlik mintaqasida qo'llaniladigan integratsiyalashgan siyosat yondashuvlarini ishlab chiqish/mustahkamlashda "barchaga bitta o'licham" yondashuvi bo'lmasligini va integratsiyalashgan siyosat yondashuvlarini qo'llashda sheriklik muhim ekanligini aniqladilar. (Birtha va boshq., 2022). Amaliyat osongina joriy qilinishi mumkin va uni nazorat ostida mamlakat ehtiyojlariga moslashtirish mumkin. Zaif guruhlar uchun belgilangan choralar yetkazib berishning takomillashtirilgan modellari

⁴² <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/f2b0fce7-9309-5184-b56afeab34cc000d/content>

Armanistondagi Integratsiyalashgan ijtimoiy xizmatlar markazlarida ham mavjud (quyida ko'ring).

4.3 Armanistonda integratsiyalashgan ijtimoiy xizmatlar markazlari (IIXMLar)

Armanistonda qo'llanayotgan integratsiyalashgan yondashuv, shu jumladan IIXMlarga⁴³, 2022-yilda XMT buyrug'i bilan **ijtimoiy himoya va bandlik xizmatlarini ko'rsatishni** muvofiqlashtirishni takomillashtirishda mamlakatga yordam berish uchun Yevropa Markazi tomonidan maslahat xizmatlari taqdim etildi⁴⁴. IIXMLar beshta yo'naliшning funktsiyalarini birlashtiradi: ijtimoiy ta'minot, bandlik, nogironlik, ijtimoiy yordam xizmatlari va uy-joy. Islohotlarni amaliyotga tatbiq etish uchun davlat hokimiyati organlari kompleks chora-tadbirlarni, jumladan, yangi tartiblarni amalga oshirmoqda. Ijtimoiy ishchilar va IIXM maslahatchilari yangi vositalarni qo'llash uchun IKM bo'yicha o'qitildi. Ittimos, 4-jadvaldagi tegishli asosiy ma'lumotlar bilan tanishing.

Asosiy xususiyatlari	49 ta IIXMlarda beshta yo'naliшning funktsiyalarini birlashtirilgan: ijtimoiy ta'minot, bandlik, nogironlik, ijtimoiy yordam xizmatlari va uy-joy.
Maqsadlari	<ul style="list-style-type: none">Ijtimoiy himoya sohasining barcha 4 organlarini: ijtimoiy ta'minot xizmatining hududiy markazlarini, tibbiy-ijtimoiy ekspertizani va bandlik davlat organini birlashtirish;Ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va oilaning ijtimoiy ehtiyojlariga mos ravishda unga ko'p qirrali va to'liq ijtimoiy xizmatlar paketini ko'rsatishni ta'minlash;
Maqsadli guruh	Jamiyatning zaif qatlamlari
Yil/Davomiyligi	2010 yilda yagona ijtimoiy xizmat islohoti joriy etildi va 2012 yilda islohot doirasida Integratsiyalashgan Ijtimoiy Xizmatlar Markazlari (IIXMLar) tashkil etildi.
Sheriklari	Idoralararo hamkorlik Armanistonda qonun bilan tartibga solinadi. Milliy va mahalliy darajadagi barcha tegishli muassasalar qashshoqlikning oldini olish va undan xalos bo'lish, shu jumladan bandlikni oshirish va mehnat ekspluatatsiyasiga qarshi kurashish orqali yagona organ sifatida ishlashi kerak.
Qo'llash mumkin bo'lgan jihatlari	O'zbekistonda bo'lgani kabi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun "yagona darcha" markazlari uy-joy va ijtimoiy ta'minot kabi siyosatning turli sohalarini qamrab olgan holda kompleks yondashuvga qaratilgan. O'zbekiston, shuningdek, Stamdart Faoliyat Tamoyillari (SOP) yo'llanma shakllari, SOP ishini

⁴³ <https://socservice.am/>

⁴⁴ <https://www.euro.centre.org/projects/detail/4261>

tugatish shakllari, Keys menejerlari uchun keys tavsifi, Ish faoliyatini monitoring qilish modellari, Sertifikatlash va boshqalar bo'yicha olingan bilimlardan foydalanishi mumkin.

4-jadval: Armanistondagi amaliyot bo'yicha asosiy ma'lumotlar

Manba': Sandu & Scopetta, 2022; Scopetta & Sandu, 2022

Idoralararo hamkorlik Armanistonda qonun bilan tartibga solinadi. Milliy va mahalliy darajadagi barcha tegishli muassasalar qashshoqlikning oldini olish va undan xalos bo'lish va buni shu jumladan bandlikni oshirish va mehnat ekspluatatsiyasiga qarshi kurashish orqali amalga oshirish uchun yagona organ sifatida ishlashlari kerak. Ko'p tarmoqlilik printsipi keys-menejment orqali har bir mijoz uchun qo'llanilishi kerak. Ushbu tamoyil "Armaniston va Tojikistonda ijtimoiy himoya va bandlik xizmatlarini ko'rsatishni muvofiqlashtirishni takomillashtirish" yo'riqnomasida va "Keys-menegment va keys-menegerlari" yo'riqnomasida batafsilroq bayon etilgan bo'lib, u integratsiyalashgan siyosat yondashuvlari bo'yicha yangi jarayonlarni: Standart Faoliyat Tamoyillari (SOP) tavsiya shakllari, SOP Ishni yopish shakllari, keys menejerlari uchun ish tavsifi, Ishlash monitoringi modellari, Sertifikatlash kabilarni amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida ishlab chiqilgan. (Sandu & Scopetta, 2022; Scopetta & Sandu, 2022). Ushbu vositalar O'zbekistonda IKMni joriy etishda yordam berishi mumkin. Mazkur amaliyot, shuningdek, uy-joy va ijtimoiy ta'minot kabi siyosatning turli sohalarini qamrab olgan holda yaxlit yondashuv tufayli ijtimoiy himoyaga muhtoj odamlarning maqsadli guruhi uchun "yagona darcha" tamoyilini joriy etish bo'yicha O'zbekistondagi hamkorlarga ham xizmat qilishi mumkin.

4.4 Maltada ish o'rni yaratish o'ymakorligi va hunarmandchiligi

Masalan, Maltada⁴⁵ amalga oshirilgan "Ish o'rni yaratish o'ymakorligi va hunarmandchiligi" (Job Carving and Job Crafting) konsepsiysi O'zbekiston uchun istiqbolli amaliyot bo'lib xizmat qilishi mumkin. **Ish o'rni yaratish o'ymakorligi – bu kompaniya ichidagi maxsus bandlik imkoniyatlarini yaratish uchun ish vazifalarini qayta tashkil etish amaliyotini anglatadi.** Odatda kompaniya menejerlari tomonidan amalga oshiriladigan ish o'rni yaratish o'ymakorligidan (ya'ni, yuqorida pastga jarayondan) farqli o'laroq, **ish o'rni yaratish hunarmandchiligi o'z ishlari va vazifalarini loyihalash va sozlash uchun avtonomiya berilgan xodimlar tomonidan boshqariladigan pastdan yuqoriga jarayonni anglatadi.** Yevropa Komissiyasi tomonidan Yevropa Markazi bilan Yelda bunday amaliyotlarni joriy etishni o'rganish

⁴⁵ Yevropaning turli mamlakatlarida ish o'rni yaratish o'ymakorligi va hunarmandchiligi (qarang: Scopetta et al., 2019).

uchun shartnoma tuzgan. Quyidagi 5-jadvalda tegishli asosiy ma'lumotlar taqdim etilgan.

5-jadval:


Maltadagi amaliyot bo'yicha asosiy ma'lumotlar

Manba': Scopetta, Davern & Geyer (2019)

Asosiy xususiyatlari	Ish o'rirlari o'ymakorligi va hunarmandchiligi mehnat bozoridagi to'siqlarga duch kelgan shaxslar qiyinchilikarni yengishlari, unga (qayta) integratsiyalashuvi va mazmunli va samarali bandlikni yaratish orqali ishchilarni ish bilan ta'minlash uchun samarali strategiya bo'lishi mumkin.
Maqsadlari	<ul style="list-style-type: none"> Nogironligi bo'lgan ish qidiruvchilarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvini oshirish; Nogironlarni ishga joylashtirishga ish beruvchilarning nuqtai nazarini o'zgartirish; Nogironlar uchun 2 foizlik ish bilan ta'minlash kvotasi ijrosini ta'minlash; va Mavjud bo'sh ish o'rirlarining "talablari" va nogiron ish izlovchilarning "tayyorligi" o'rtaсидagi tafovutni bartaraf etish..
Maqsadli guruh	Nogironligi bo'lgan shaxslar
Yil/Davomiyligi	2017 yildan boshlab
Sheriklari	Jobsplus, the Maltese DBX and Lino Spiteri Foundation (LSF)
Natijalar	Ish izlovchilar uchun mos bo'lgan 278 ta ish o'rirlarini yaratish (2018 yil aprel holatiga ko'ra; Scopetta, Davern & Geyer, 2019). 2020-yilda 236 nafar nogironligi bo'lgan shaxs ish bilan ta'minlandi. Ushbu roller bo'yicha 80% dan ortig'i o'z ishlarida qoladi va LSF tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ishchilarning taxminan 52% "o'yilgan ish o'rirlari"ga joylashtiriladi. (IHTT, 2021).
Qo'llash mumkin bo'lgan jihatlari	Bu istiqbolli amaliyotdir, chunki u firmalar bilan yaqin munosabatlarni o'rnatishga va nogironlar uchun maxsus ish joylarini yaratishga yordam beradi. .

Ish o'rirlari o'ymakorligi va hunarmandchiligi mehnat bozoridagi to'siqlarga duch kelgan shaxslar qiyinchilikarni yengishlari, unga (qayta) integratsiyalashuvi va mazmunli va samarali bandlikni yaratish orqali ishchilarni ish bilan ta'minlash uchun samarali strategiya bo'lishi mumkin. U ish joylarini moslashtirish yoki odamlarning shaxsiy iste'dodlari, ehtiyojlari va motivatsiyasiga mos ravishda yangilarini yaratish uchun innovatsion yondashuvni qo'llaydi. **Mazkur amaliyot IKM modeli bo'lmay, u nogironlar uchun maqsadli bandlik dasturining namunasidir.** Ish o'rirlari o'ymakorligi va hunarmandchiligi o'rtaсидagi farq haqida quyidagi 4-rasmga ma'lumot oling.

4-rasm: ish o'rni o'ymakorligi va hunarmandchiligi



Source: Scopetta, Davern & Geyer (2019)

Maltaning DBX kompaniyasi bo'lmish "Jobsplus" nogiron ish qidiruvchilarning mehnat bozoriga integratsiyalashuviga ixtisoslashgan Lino Spiteri Foundation (LSF)⁴⁶ bilan sherikchilikka kirdi. Loyihaning maqsadlari nogironligi bo'lган ish izlovchilarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvini oshirish va ish beruvchilarning nogironlarni ishga joylashtirishga bo'lga qarashlarini o'zgartirishdan iborat edi. LSF nogironlarni ishga yollashda korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun korporativ aloqalar bo'limini tashkil etdi. Korporativ aloqalar bo'yicha rahbar korxonada nogiron ish izlovchilar uchun potentsial mos keladigan mavjud kasblarni aniqlaydi. "O'ymakorlik" amaliyoti korxona talablari va nogironligi bo'lган ro'yxatga olingan ish izlovchilarning mavjud malakalari va ko'nikmalaridan kelib chiqadi. Bu ishga joylashishdan oldingi sa'y-harakatlar bilan birlashtiriladi, masalan, Jobsplus tomonidan ro'yxatga olingan nogironligi bo'lган ish izlovchilarning ishga joylashishi va tayyorgarligini yaxshilash uchun taklif qilinadigan o'qitish va mazkur soha bilan tanishtirish sxemalari (Scopetta va boshq., 2019). Malta korxonalarida nogironlar uchun kamida 2% bandlik kvotasi joriy etilishi ko'plab korxonalarini o'z jamoalariga qabul qilish maqsadida nogironlarni faol izlashga undadi (Genova va Davern, 2022).

⁴⁶ <https://linospiterifoundation.org/about-us/best-practice/>

5 Siyosat bo'yicha tavsiyalar

Tahlillarimiz va tanlangan amaliyotlar (yuqoriga qarang) asosida biz O'zbekiston hukumatiga turli aralashuv darajalarida duch keladigan muammolarni yanada yaxlitroq hal qilishda yordam berishi va nihoyat, bandlik sohasida integratsiyalashgan yondashuvni qo'llashga va nogironlar uchun ijtimoiy siyosatni ta'minlab berishga qaratilgan to'rtta asosiy aralashuv sohasini aniqladik. To'rtta aniqlangan aralashuv sohalari quyidagilardir:

- I. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash uchun maqsadli dasturlar
- II. Keng qamrovli va yaxshi muvofiqlashtirilgan dasturlar
- III. Bandlik va ijtimoiy ta'minot sub'ektlari o'rtasidagi sherikchilik
- IV. Nogironlar uchun IKM

Quyidagi 6-jadvalda tahlilning asosiy natijalari, xalqaro amaliyot va ushbu bo'limda bayon etilgan to'rtta aralashuv sohasi keltirilgan.

6-jadval

Asosiy xulosalar, tegishli aralashuv sohalari va amaliyotlari matritsasi

Tahlilning asosiy xulosalari	Aralashuv sohalari	Amaliyotlar	
Nogironlarning ishga joylashish ehtimoli nogironligi bo'Imaganlarga qaraganda to'rt baravar kam Kvota tizimi nogironlarni ish bilan ta'minlash uchun samarali bo'lganligini tasdiqlovchi hech qanday dalil yo'q Salbiy stereotiplar va noto'g'ri qarashlar nogironlarning ish topish imkoniyatlariiga yanada ta'sir qiladi	Bir nechta FMBDlar 12 ta ijtimoiy ko'mak dasturlari Yagona reestr	Nogironlar uchun maqsadli bandlik dasturlari	Amaliyot: Ish o'rni o'ymakorligi va ish o'rni hunarmandchiligi

Bandlik va ijtimoiy himoya o'rtasida qo'llaniladigan kompleks yondashuv mavjud emas	Kompleks va yaxshi muvofiqlashtirilgan dasturlar	Amaliyat: Kosovoda AIIP
DBX, mahalliy/mintaqaviy boshqaruv darajasida tashkil etilgan Monomarkazlar va Inson markazlari IKMni birgalikda sinab ko'rishlari va shu tariqa kengaytirilgan hamkorlik/sheriklikni qo'llashlari kerak.	Bandlik va ijtimoiy ta'minot sub'ektlari o'rtasidagi hamkorlik Nogironlar uchun IKM	Amaliyat: Armanistonda Integratsiyalashgan keys-menejment Amaliyat: Litvada keys-menejment

Aralashuv sohalari boshqaruvning turli darajalarida va turli idoralar tomonidan harakatlarni talab qiladi. **Masalan, bandlik va ijtimoiy himoya o'rtasida kompleks va yaxshi muvofiqlashtirilgan dasturlarni amalga oshirish uchun ikkala siyosat sohasining markaziy boshqaruv darajalarida dasturlarni ishlab chiquvchi ishtirokchilar hamkorlik qilishi lozim.** Bundan tashqari, markaziy darajada amalga oshirilgan tuzatishlar bilan bir qatorda, mahalliy darajada amalga oshirilgan pilot loyihalar muvofiqlashtirish va siyosatni qo'llashni yaxshilashga yordam beradigan amaliy tushunchalarni to'playdi (pilot loyiha/lar Toshkentda ko'zda tutilgan)⁴⁷.

1-ARALASHUV SOHASI

NOGIRONLAR UCHUN MAQSADLI BANDLIK DASTURLARI

Aniqlangan talablar	Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlashning maqsadli chora-tadbirlari yetishmasligi
<i>O'zbekistondagi kirish nuqtalari</i>	<i>www.ishplus.uz loyihasi</i>
Istiqlolli xalqaro amaliyotlar	Ish o'rni o'ymakorligi va ish o'rni hunarmandchiligi (masalan, Maltada)

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat bozoriga integratsiyalashuviga yordam beradigan maqsadli chora-tadbirlar ko'pincha yetishmaydi. Ish izlovchilar/vakansiyalarni bir-biriga to'g'irlashga qaratilgan www.ishplus.uz platformasi nogironligi bo'lgan ish izlovchilar uchun

⁴⁷ 2024-yil aprel oyida bo'lib o'tadigan missiya davomida, jumladan, hamkor tashkilotlarga tashriflar hamda Ishtirok etish doirasini aniqlash bo'yicha seminar va manfaatdor tomonlarning milliy seminar davomidagi muhokamalar Monomarkazlarda yoki Inson markazlarida IKMni sinovdan o'tkazish imkoniyatlari, afzalliklari va kamchiliklari o'rganiladi.

treningdan tashqari nogironlar uchun moslashtirilgan xizmatlar va takliflar uchun kirish nuqtasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, **nogironlar uchun** ularning shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda **maqsadli takliflarni ishlab chiqish va o'rnatish** zarurati mavjudligi namoyon bo'ladi. Umuman olganda, **nogironligi bo'lgan shaxslarning imkoniyatlarini kengaytuvchi chora-tadbirlarni** amalga oshirish **tavsiya etiladi**. E'tibor bering, barcha choralar BMT NHTK talablariga muvofiq bo'lishi kerak⁴⁸

Joriy etiladigan siyosat choralariga kelsak, biz **keng qamrovli dasturlarni ishlab chiqishni va chora-tadbirlarni turli formatlarda, shu jumladan integratsiya zanjirlarida** (ya'ni, bir-birini ketma-ketlikda kuzatib boruvchi, qisman turli ishtirokchilar tomonidan ta'minlangan chora-tadbirlar) **taqdim etishni taklif qilamiz**. Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat bozoriga kirishi bo'yicha yangi chora-tadbirlarga misollar qatoriga **maslahat xizmatlari, ish joyiga integratsiyalashuv yordami, inklyuziv yordam, shogirdlar uchun inklyuzivlik bonusi, o'z-o'zini band qilganlar uchun boshlang'ich moliyalashtirish, yoshlар murabbiyligi va nogironlar uchun kasbiy ta'limga yordam berish dasturlari kiradi**⁴⁹.

Tadbirlar **Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (KQBV) rahbarligida DBX tomonidan** ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi kerak. Maqsadli guruh ehtiyojlarini qondirish va sineryiyadan samarali foydalanish uchun IHMA, Inson markazlari kabi boshqa **ishtirokchilar**, Sharoit plus va Monomarkazlar kabi NNTlar **bilan hamkorlikda** chora-tadbirlar ishlab chiqish tavsiya etiladi (Sherikchilik bo'yicha III Intervensiya sohasiga qarang).

Taklif etilayotgan, **nogironlik masalalarini umumiyl tizimga integratsiya qilish** bir qatorda, **nogironlar uchun aniq maqsadli chora-tadbirlarni** amalga oshirish kerak. "**Ish o'rnlari o'ymakorligi va Ish o'rnlari hunarmandchiligi**" dasturini amalga oshirish firmalar tomonidan yetishmayotgan ish takliflari muammosini yengishga yordam beradi (yuqoriga qarang). Ushbu kontseptsiyaning kuchi shundaki, ish o'rnlari firmalar bilan birgalikda ularning ehtiyojlari va nogironlarning iste'dodlariga asoslanib, "o'yilgan" yoki "ishlab chiqarilgan" bo'ladi. Biroq, bu katta investitsiyalarni talab qiladigan ilg'or kontseptsiyadir.

2-ARALASHUV SOHASI

KOMPLEKS VA YAXSHI MUVOFIQLASHTIRILGAN DASTURLAR

⁴⁸ Qonunlar va choralar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (IHUD) va BMTning NHTK talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

⁴⁹ See, for instance, Scopetta (2023).

Aniqlangan talablar	Kam sonli dasturlar hamda FMBD va ijtimoiy chora-tadbirlar va xizmatlar o'rtasida cheklangan muvofiqlashtirish
Istiqbolli xalqaro amaliyotlar	Masalan, Avstriyadagi nogiron ishsizlar uchun milliy siyosat va takliflar haqida ma'lumot uchun Scopetta 2023 ga qarang. ⁵⁰ Muvofiqlashtirish mexanizmlari haqida Kosovodagi AIIP ga qarang

Mijozning vaziyatida ijobiy o'zgarishlarga (ya'ni, asosiy daromadga ega bo'lish va mehnat bozoriga qo'shilishga) olib keladigan samarali IKM uchun taklif qilinadigan xizmatda ikkita asosiy shartga rioya qilish kerak: **bandlik va ijtimoiy yordam oluvchilar/mijozlar uchun adekvat pul va pul bo'limgan imtiyozlar va xizmatlarning mavjudligi** (Scopetta & Sandu, 2022). Biroq, O'zbekistonda mavjud FMBD choralari cheklangan bo'lib, asosan jamoat ishlari dasturi va o'quv takliflariga taalluqlidir (yuqoriga qarang). Shuning uchun biz nogironlar uchun maqsadli bandlik chora-tadbirlariga sarmoya kiritishni taklif qilamiz (yuqoriga qarang).

XMT tomonidan aniqlangan yana bir asosiy muammo – bu xizmatni tashkil etishdir. Hozirgi vaqtida DBX xizmatlarini yetkazib berish qismlari uchun mas'ul bo'lgan juda ko'p alohida bo'linmalar mavjud (XMT, 2021). XMT ma'lumotlariga ko'ra (2021), eng ko'p e'tiborga muhtoj bo'lgan sohalar – bu individual maslahat va yo'l-yo'riq xizmatlari; mehnat bozori haqidagi mavjud ma'lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish; faol va passiv mehnat bozori siyosatining adekvat tizimi mavjudligi; va mehnat bozori siyosatini moliyalashtirish mexanizmlari bayoni. O'zbekistonda qo'llab-quvvatlanadigan bandlik choralari, jumladan, nogironlar uchun ayniqsa samarali ekanligi isbotlangan individual rivojlanish rejali va kasbiy reabilitatsiya deyarli mavjud emasligi sababli, biz **mehnat bozori va ijtimoiy himoya dasturlari salohiyatini oshirishni va guruhlarga mehnat bozoriga integratsiyalashuv yo'lida yordam beradigan yuqorida aytib o'tilganlar kabi takliflar⁵¹** ishlab chiqishni qat'iy tavsiya qilamiz.

Nihoyat, **manfaatdor tomonlar (DBX, IHMA, Monomarkazlar, INSON Ijtimoiy Xizmatlar Markazlari, NNTlar, tadqiqot va boshqalar)** o'rtasida aloqa, ishga qabul qilish, xizmat takliflari, ro'yxatga olish, yo'llanmalar, Standart Faoliyat Tartiblarini (SOP) monitoring va baholash va boshqalarini yaxshilash uchun muvofiqlashtirish mexanizmlarini qo'llash zarurati ko'rilmoxda.

⁵⁰ <https://ec.europa.eu/social/BlobServlet?docId=23162&langId=en>

⁵¹ Ularga jumladan maslahat xizmatlari, ish joyiga integratsiyaga yordam berish, inklyuziv yordam, shogirdlar uchun inklyuzivlik bonusi, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun boshlang'ich moliyalashtirish, yoshlar uchun murabbiylilik va nogironlar uchun kasbiy ta'limga yordam berish dasturlari kiradi.

Nogironlarni mehnat bozoriga integratsiya qilish mas'uliyati turli manfaatdor tomonlar zimmasiga yuklangan (masalan, KQBV, IHMA, INSON markazlari, monomarkazlar va boshqalar boshchiligidagi bandlik dasturlari uchun DBX). Bundan tashqari, **har bir sherik** rivojlangan muvofiqlashtirish mexanizmlari bo'yicha **mas'uldir** va yaxshi muvofiqlashtirishni ta'minlashda o'z rolini o'ynaydi. Muvofiqlashtirishga turli usullar bilan erishish mumkin, masalan, sheriklar o'rtasidagi muntazam uchrashuvlar, keys konferentsiyalari⁵² va muvofiqlashtirish organini⁵³ tashkil etish (shuningdek qarang: Scopetta & Sandu, 2022). Hamkor tashkilotlarda (milliy, mintaqaviy/mahalliy) xodimlarning malakasini oshirish uchun bo'lim xodimlarini o'qitish kabi salohiyatni oshirish tadbirlari zarur bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, 3-Aralashuv sohasida tasvirlanganidek, mahalliy darajada hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun maxsus treninglar o'tkazish tavsiya etiladi.

3-ARALASHUV SOHASI

BANDLIK VA IJTIMOIY TA'MINOT SUB'EKLTLARI O'RTASIDAGI HAMKORLIK	
Aniqlangan talablar	DBX, IHMA ofislari, Monomarkazlar, INSON Ijtimoiy Xizmatlar markazlari va boshqalar o'rtasida hamkorlik amaliyotlari kam.
O'zbekistondagi kirish nuqtalari	O'zbekiston hukumati (2023a) “Ishga Marhamat” monomarkazi va “Sharoit plus” o'rtasida memorandum imzolandi ⁵⁴
Istiqlolli xalqaro amaliyotlar	Hamkorlik bo'yicha Yevropa axloq kodeksi Armanistonda integratsiyalashgan ijtimoiy xizmatlar markazlari

Biz boshqaruvning **barcha darajalarida mas'ul manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni standart tartiblar, qoidalar va protokollar orqali rasmiylashtirish** orqali bandlik va ijtimoiy himoya o'rtasidagi tizimli aloqani mustahkamlashni tavsiya

⁵² Keys konferentsiyalari mijoz haqida zarur ma'lumotlarni (ijtimoiy-iqtisodiy mavqe'i, imtiyozlar tarixi, taklif qilinadigan xizmatlar va boshqalar) almashish va xavf omillarini muhokama qilish uchun mijoz bilan ishlaydigan mutaxassislarning ko'p tarmoqli uchrashuvlari; mijozning ehtiyojlari; zarur nazorat va yordam tadbirlari; va jalb qilingan mutaxassislarning roli kabilardir. Keys konferentsiyalarining maqsadi sektorlar va agentliklar bo'ylab xizmat ko'rsatish imkoniyatlari ko'rib chiqish va mijozning eng yaxshi manfaatlarini hisobga olgan holda rasmiy qarorlar qabul qilishdir. (moslashtirib olingan manba: https://bettercarenetwork.org/sites/default/files/2021-10/143.11_EN_SOP%20Case%20Conferencing_26Oct2021.pdf)

